Sanoat korxonalarida kondensator batareyalari ko'p ishlatiladi. Ular 0,22; 0,38; 0,66; 6 va 10 kV li kuchlanishlarga mo'ljallangan bo'lib, bino ichkarisiga yoki tashqarisiga qo'yilishi mumkin. Kondensatorlar bir yoki uch fazali qilib ishlab chiqariladi. Kondensator batareyalarining reaktiv quvvatni kompensatsiyalashda keng ishlatishiga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- aktiv quvvatning solishtirma isrofi 0,005 ($kVt/kVAr$) gacha kichik bo'lishi mumkin;
- ekspluatatsiyasi va ta'mirlash (montaj) ishlari oson bajariladi;
- narxi nisbatan arzon;
- og'irligi engil;
- shovqinsiz ishlaydi;
- elektr iste'molchilar guruhining joylashgan maydoniga o'rnatish mumkin.

Kondensator batareyalari uch fazali tarmoqqa uchburchak shaklida ulanadi. Bunday ulanganda har bir elementdagi kuchlanish qiymati yulduz sxema bo'yicha ulanishga nisbatan $\sqrt{3}$ marotaba katta bo'lib, ishlab chiqarilayotgan reaktiv quvvatning miqdori esa, 3 marotaba ortiq bo'ladi. Kondensatorlar tarmoqdan uzilganda qoldiq zaryad avtomatik ravishda aktiv qarshilikka zaryadsizlanishi kerak. Zaryadsizlovchi qarshilik sifatida 6-10 kV kuchlanishlarda ikkita bir fazali kuchlanish transformatorlari, 0,38 kV kuchlanishda cho'g'lanuvchi lampalar ishlatiladi.

Kompensatsiyalovchi qurilmalarning zaruriy quvvatini aniqlash vaqtida energotizimning korxonaga uzatiladigan reaktiv quvvat miqdorini hisobga olish kerak. Umumiy holda quyidagi shart bajarilishi talab qilinadi:

$$Q_k \geq Q_h - Q_t \quad (kVAr),$$

bu yerda, Q_h - korxonaning hisobiy (iste'mol qiladigan) reaktiv quvvati, ($kVAr$);

Q_e - energotizim tomonidan uzatiladigan reaktiv quvvat, ($kVAr$);

Q_k - korxonada kompensatsiyalanishi zarur bo'lgan reaktiv quvvat, ($kVAr$).

Korxonaning reaktiv quvvat tanqisligini bir qismi energotizim tomonidan qoplansa, ikkinchi qismi korxonaga o'rnatiladigan kompensatorlar orqali to'ldiriladi.

Kompensatsiyalovchi qurilmalarning quvvatini quyidagicha aniqlash mumkin.

$$Q_k = P_{um} \cdot (tg\varphi_h - tg\varphi_e) \quad (kVar),$$

bu yerda, P_{um} - energotizim yuklamasi maksimum bo'lganida, korxonaning aktiv quvvati, (kVt);

$tg\varphi_h$ - P_{um} ga to'g'ri keladigan reaktiv quvvat koeffitsienti;

$tg\varphi_e$ - energotizim talab qiladigan reaktiv quvvat koeffitsienti, (hisoblashlar uchun $\cos\varphi=0,8$ bo'lgan holatida, $tg\varphi_e=0,328$ ga teng deb qabul qilingan).

Ip yigiruv fabrikasining ishlab chiqarishi uchun reaktiv quvvat kompensatsiya tadbiri o'tkazamiz. Bunda reaktiv quvvat manbasi sifatida kondensator batareyasini qo'llaymiz.

- fabrika bo'yicha kondensator batareyasini hisobiy quvvatini aniqlaymiz:

$$Q_{h.ku} = P_h \cdot (tg\varphi_h - tg\varphi_e) = 883,07 \cdot (0,75 - 0,328) = 372,65 \quad (kVar).$$

Yalpi quvvati $Q_{n.ku} = 300$ (kVar), hamda YKM-58-0,4-300-50Y3 markali kondensator batareyalarni tanlaymiz.

- fabrikaning qoldiq reaktiv quvvatini hisoblaymiz:

$$Q_{h.kk} = Q_{h,0,4} - Q_{n.ku} = 372,65 - 300 = 72,65 \quad (kVar).$$

- fabrikaning kompensatsiyadan keyingi hisobiy to'la quvvatini topamiz:

$$S_{h.kk} = \sqrt{P_h^2 + Q_{h.kk}^2} = \sqrt{883^2 + 72,65^2} = 886 \quad (kVA).$$

- fabrika bo'yicha kompensatsiyadan keyingi quvvat koeffitsientini aniqlaymiz:

$$\cos\varphi'' = \frac{P_h + P_{h.yor}}{S_{h.kk}} = \frac{886}{887} = 0,99.$$

- fabrikaning kompensatsiyadan keyingi reaktiv quvvat koeffitsienti:

$$tg\varphi'' = \frac{\sqrt{1 - \cos^2\varphi''}}{\cos\varphi''} = \frac{\sqrt{1 - 0,99^2}}{0,99} = 0,14.$$

Xuddi shu tartibda, qolgan bo'limlar uchun ham reaktiv quvvat kompensatsiyasi tadbirini o'tkaziladi.

2.4. Ip yigiruv fabrikasiga uzatilayotgan elektr energiyasi kuchlanishining ratsional qiymatini tanlash

1000 V kuchlanishgacha sex elektr iste'molchilari quyidagi o'zgaruvchan 3 fazali kuchlanish standartlardan tanlanadi:

3-jadval

Transfarmator chiqishlaridagi kuchlanish V	Elektr iste'molchilar kirishidagi kuchlanish V
133	127
230	220
400	380
690	660

Elektr ta'minoti uchun 127-230 V kuchlanish standartlarini foydalanish elektr energiya isrofi yuqori va rangli metal sarfi yuqori bo'lishligi sababli iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha talabga javob bermaydi. Bir fazali kichik quvvatli ekekr motorlarini yoki yer osti qurilmalari inshootlarida yoritish tarmoqlari uchun bazida 127 V kuchlanish qo'llaniladi. 220 V kuchlanish xuddi 380-220 V kuchlanishli tarmoqning 220 V kuchlanishi kabi, yoritish kichik quvvatli elektr dvigatellarni ta'minlash, isitish sabablarini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Sanoat korxonalarini elektr taminoti tizimida 380 V kuchlanishli elektr motorlarini ta'minlash uchun tanlangan. Yuqoridagi kuchlanishni yoritish tizimini ta'minlash uchun foydalaniladi. (bir faza zaminlangan nol).

380-220 V kuchlanish tizimi iste'molchilari elektr ta'minoti asosiy shartlarini qoniqtiradi:

- Elektr motorlar va yoritish qurilmalarini birgalikda ta'minlash imkonini;
- ``Yer`` va ``Nol`` va past kuchlanish orasidagi kuchlanish 220 V ligi

Sex tarmoqlarida elektr energiya isroflarini kamaytirish uchun 380 V kuchlanishdan kichik bo'lmagan kuchlanish qabul qilinadi.

660 V kuchlanishni 380 V kuchlanish standarti bilan solishtirganda bir qator foydali jihatlarga ega.

- Kuchlanishi 380 V tarmoqqa nisbatan kuchlanishi 660 V tarmoqli sex inshootida rangli metal sarfi quvvat sarfi kichik.

- 660 V kukuchlanishiga mo'ljallangan ishlab chiqarilgan elektr motorlarni 380 V kuchlanishda ishlatish imkoniyati mavjudligi (ulanish sxemasi o'zgartirib);

- Quvvati 600-700 kW elektr motorlari 6 kV kuchlanishga ishlatilganda nisbatan 660 V kuchlanishdan foydalanish texnik - iqtisodiy ko'rsatgichlar bo'ycha samarali hisoblanadi .

- Kuchlanishi 660 V bo'lgan tarmoqlarning bir qator kamchiliklari xam mavjud.

- Yoritish yuklamalari ta'minlash uchun 660 V kuchlanishli tarmoqqa 0.66/0.22 yoki 20-6/0,22 kV maxsus transformator o'rnatilishi kerak .

- Kuchlanishni o'lchash zanjirlari uchun 660/100 V kuchlanishi transformatori qo'shimcha o'rnatilishi kerak;

Yuqoridagi keltirilgan xulosalardan kelib chiqib OST sexining elektr taminoti uchun 380-220 V kuchlanishli standartni qabul qilishni texnik iqtisodiy jihatdan foydali sanaladi.

2.5. Ip yigiruv fabrikasining tashqi taminot sxemasini tanlash

Fabrika ichki qurilmalarning elektr energiya bilan taminlash sxemasi radial sxema amalga oshiriladi. Ip yigiruv fabrikasining elektr iste'molchilarining 85% ni birinchi katigoriya elektr qurilmalari hisoblanadi. Shu sababli ikki mustaqil taminot manbaiga ega radial elektr taminot sxemasi tanlanadi va qo'shimcha 110 kVA li DES ta'langan.

2.6. Ip yigiruv fabrikasining elektr taminoti.

Korxonaning ratsional elektr taminoti tizimini yaratishda BPP va sex podistsiyalardagi kuch transformatorlarning soni va quvvatni texnik va iqtisodiy nuqtai nazardan to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Texnik ko'rsatgichlarga elektr taminoti sxemasining ishonchliligi ekspuatatsiyada

qulayligi jihozlarning uzoq muddatda ishlay olishi avtomatlashgan darajasi va h.k.kiradi. iqtisodiy ko`rsatgichlarini esa asosan boshlang`ich kapital mablag` va yillik sarf - xarajatlarida kiradi .Korxona uchun kuch transformatorlarning soni va quvvatlarini tanlashda ikki yoki ko`p variantlar taxlil qilinib ulardan engmaquli olinadi.

Korxona elektr taminoti tizimlarida transformatorlar tanlanganda ularning ikkita yoki uchta standart quvvatli bo`lishi erishish maqsadi muofiqdir. Bunda zaxiradagi transformatorlar soni kamayib buzilganini almashtirish osonlashadi .

Tanlangan transformator soni istemolchilarni elektr energiyasi bilan taminlashda ishonchli hisoblanadi. Transformator ishdan chiqsa ikkinchisi buzilgan transformator tamirlash yoki almashtirishga ketadigan vaqt oraliq`i uchun 100%-li ishonchlilikni ta'minlashi kerak.

Birinchi toifali istemolchilarni ikkita transformatorli podistsiyalardan ta'mirlash zarur bo`lib har bir transformator ayrim shina seksiyalarga ulanishi kerak. Kichik kuchlanishda ishchi shinalar seksiyalarga xam alohida saqlanadi bu esa kichik kuchlanishli tarmoqlarning ish sharoitini yaxshilab q t. tokining miqdorini ikki marotaba kamaytiradi .

Ip yigiruv fabrikasining bosh rejasi taxlili shuni ko`rsatadiki 2 transformatorli 1 ta 6/0,4 kV kuchlanishli komplekt transformatorlar podistsiyasi ta'minlash texnik iqtisodiy jihatdan har bir navbati uchun alohida 6/0,4 kV kuchlanishli KTP nisbati iqtisodiy va ishonchlilik jihtidan samarasiz hisoblanadi. Shu sababli Ip yigiruv fabrikasining uchun alohida uchun alohida ikki transformatorli KTP taminlanishi maqsadga muofiqdir. Past kuchlanishli shinalari ham alohida seksiyalanadi.

2.7. Transformatorlarning quvvatini tanlash.

Transformatorlar quvvatlarini hisobiy yuklamalarga mos ravishda qabul qilinadi. Shu bilan birga transformatorlarning iqtisodiy ish rejimi va iste`molchilarning elektr ta`minoti bo`yicha ishonchlikni ta`minlashni xam

xisobga olinadi. Me`yoriy sharoitda transformatorlarning yuklamasi uning tabiiy ishlash muddatini qisqartirmasligi kerak.

Transformatorlarning nominal quvvati deganda shunday yuklamani tushuniladiki, unda nominal ish sharoitida belgilangan ishlash muddati davomida (taxminan 20 yil) transformator uzliksiz ishlay boshlaydi.

Sanoat korxonalari iste`molchilarning elektr ta`minotida zarur bo`lgan kuch transformatorlarining soni quvvati va tiplarini tanlashda quyidagi tartib tavsiya etiladi:

1. Podstansiyada o`rnatiladigan transformatorlarning soni iste`molchilarning elektr ta`minotining istemolchilarning elektr ta`minotining ishonchliligiga bo`lgan talabidan kelib chiqiladi. Masalan birinchi toifali istemolchilari uchun podstansiyaga ikkita transformator o`rnatilishi maqsadga muvofiqdir 2.
2. Podstansiyadagi transformatorni quvvatni hisobiy to`la quvvat asosda tanlanadi.

$$\sum S_h = \sqrt{\sum P_h^2 + \sum Q_h^2}$$

Bu yerda $\sum P_h$, $\sum Q_h$ sexining hisobiy aktiv va reaktiv quvvatlari. $\sum Q_h$ aniqlanganda korxonada o`rnatilgan reaktiv quvvatini xisobga olish kerak. Agar sa`noat korxonasining sexida ikkita transformator o`rnatilishi zarur bo`lganda, ularning har birining nominal quvvat quyidagigan aniqlanadi:

$$S_{nt} \geq \frac{\sum S_h}{2 * 0,7}$$

Avariya holat uchun transformatorning o`ta yuklanish imkoniyatini tekshirib ko`riladi:

$$1,4 \cdot S_{nt} \geq \sum S_h$$

Oqova suvlarni tozalash sexi uchun alohida komplekt transformator podstansiyasi transformatorlari quvvatlarini tanlaymiz:

$$S_{nt} \geq \frac{\sum S_h}{2 * 0,7} = \frac{1799}{2 * 0,7} = 1285 \text{ kVA}$$

Ip yigiruv fabrikasining elektr istemolchilari uchun 2500kVA li ikkita transformatorli KTP tanlaymiz.

Kuch transformatorining texnik xarakteristikalarini jadvalda keltiramiz.

Kuch transformatorining parametrlari.

5-jadval

$S_{h.tp}$	$S_{h.tr}$	$S_{n.tr}$	Zavod	$k_{yuk.n}$
kVA	kVA	kVA	transformatorlari	
			markasi	
1799	1285	2500	TM2500/6/0,4	0,5

Yuqorida keltirilgan hisoblashlarga asosan, 2xTM-2500/6/0,4 markali transformator normal va favqulodda (avariya) rejimlarida kerakli shartlarni to'liq bajardi. Demak, ip yigiruv fabrikasining transformator podstantsiyasi uchun ushbu transformatorni tanlasak bo'ladi, hamda transformator parametrlarini ma'lumotnomadan tanlanib jadval ko'rinishiga keltiramiz va olingan natijalarni N-jadvalga kiritamiz.

6-jadval

<i>Sex podstantsiyasi</i>	$S_{h.tp}$	$S_{n.tr}$	U_{yuk}	U_{pk}	ΔP_{salt}	ΔP_{qt}	u_{qt}	I_{salt}
<i>transformatori</i>	kVA	kVA	kV	kV	kW	kW	%	%
TM-2500/6	1799,17	2500	6	0,4	6,2	23,5	5,5	3,5

Tanlangan transformatorning texnik parametrlari asosida uning turli ish rejimlarda texnik ko'rsatkichlarini aniqlaymiz, ya'ni:

Transformatoridagi reaktiv quvvat isroflari quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Q_{salt} = S_{n.tr} * (I_{salt} / 100) = \frac{2500 * 2}{100} = 137,5 \text{ kVar},$$

$$\Delta Q_{qt} = S_{n.tr} * (u_{qt} / 100) = \frac{2500 * 5,5}{100} = 87,5 \text{ kVar},$$

Tranformatorning aktiv quvvat isroflarini aniqlaymiz:

$$\Delta P'_{salt} = \Delta P_{salt} + k_{i.o'}^2 * \Delta Q_{salt} = 6,2 + 0,05^2 * 137,5 = 6,54 kW ,$$

$$\Delta P'_{q.t} = \Delta P_{q.tt} + k_{i.o'}^2 * \Delta Q_{q.t} = 23,5 + 0,05^2 * 87,5 = 23,7 kW ,$$

bu yerda, k_{III} - isroflarni o'zgarish koeffitsiyenti, $k_{III} = 0,05$ (kVt/kVAr).

Keltirilgan aktiv quvvat isrofini bitta transformator hisobida aniqlaymiz, ya'ni:

$$\Delta P'_{tr} = \Delta P'_{salt} + k_{yuk.av}^2 * \Delta Q_{q.t} = 6,65 + 0,71^2 * 87,5 = 18,8 kW$$

bu yerda, $k_{yuk.av}$ - transformatorning favqulodda (avariya) holatidagi yuklanish koeffitsiyenti:

$$k_{yuk.av} = \frac{S_{his.tr}}{S_{n.tr}} = \frac{1799}{2500} = 0,71$$

Keltirilgan aktiv quvvat isrofini parallel ishlayotgan transformatorlar hisobida aniqlaymiz, ya'ni:

$$\Delta P'_{tr.par} = 2 * \Delta P'_{salt} + \frac{1}{2} k_{yuk.n}^2 * \Delta Q_{q.t} = 2 * 6,54 + \frac{1}{2} 0,35^2 * 87,5 = 14,6 kW$$

bu yerda, $k_{yuk.n}$ - transformatorning normal holatidagi yuklanish koeffitsiyenti:

$$k_{yuk.n} = \frac{S_{his.tr}}{2 * S_{n.tr}} = \frac{1799}{2 * 2500} = 0,35$$

Tranformatrlarning parallel ishlayotgandagi holati uchun to'la quvvatni hisoblaymiz, ya'ni:

$$S_A = S_{n.tr} * \sqrt{n * (n-1) * \frac{\Delta P'_{salt}}{\Delta P'_{q.t}}} = 2500 * \sqrt{2(2-1) * \frac{6,54}{23,7}} = 1857 kVA$$

7-jadval

<i>Sex podstantsiyasi</i>	ΔQ_{salt}	ΔQ_{qt}	$\Delta P'_{salt}$	$\Delta P'_{qt}$	$\Delta P'_{tr}$	$\Delta P'_{tr.par}$	S_A
<i>transformatori</i>	kVAr	kVAr	kW	kW	kW	kW	kVA
TM-2500/6/0,4	137,5	87,5	6,54	23,7	18,8	14,6	1857

2.8. Ip yigiruv fabrikasining ichki elektr tarmoqlari hisobi.

Havo va kabel elektr uzatuv liniyalarining kesim yuzasini tanlashda texnik va iqtisodiy omillarni hisobga olish kerak.

Texnik omillar quyidagilardan iborat:

- ishchi (hisobiy) tok ta'siridan uzoq vaqt davomida qizish;
- qisqa tutashuv toki ta'siridan qisqa vaqt davomida qizish;
- normal va favqulodda (avariya) holatlarda kuchlanish nobudgarchiligi-ning miqdori;
- tashqi muhit kuchlariga (shamol, simning muz bilan qoplangan qismining og'irligi) va o'z og'irligi ta'siridan sodir bo'ladigan mexanik yuklamaga chidamliligi;
- atrof-muhit, kuchlanish va o'tkazgichning kesim yuzasi bilan bog'liq bo'lgan omil, ya'ni tojlanishga chidamliligi.

Ishlab chiqarilgan kabellar uchun mexanik mustahkamlik va tojlanishni bo'lmasligi, zavod tomonidan kafolatlanadi. Shuning uchun kabellarni mexanik mustahkamlik va tojlanish shartlari bo'yicha tekshirilmaydi.

Havo va kabel elektr uzatish liniyalari kesim yuzasini ishchi tok bo'yicha qabul qilinganida, himoyalovchi apparatning ishlash tokini (I_{xim}) aniqlash uchun liniyada qanday himoyalar (eruvchan saqlagichlar, avtomatik uzgichlar, magnit ishlatgichlarning issiqlik releasi) qo'llanilganligini bilish zarur. Agar bu o'rinda saqlagichlar ishlatilsa, eruvchan kiritmaning nominal toki himoyalash toki hisoblanadi.

Hisoblash usullarini bajaramiz.

KL-1 elektr uzatuv liniyasi uchun kabel tanlaymiz. KL-1 radial liniya hisoblanib, TP dan IIC-1gacha tortilgan va uni hisobiy yuklamasi IIC-1 ning yuklamasiga teng ya'ni $S_h = 129,85$ (kVA) ga teng.

Hisobiy toklarni aniqlaymiz:

- normal rejimda (ikkita transformator ish holatida bo'lganida):

$$I_x = \frac{S_x}{\sqrt{3} \cdot U_H \cdot \cos \varphi} = \frac{129,85}{2 \cdot 1,73 \cdot 0,38} = 93,82 \text{ A}$$

Iqtisodiy tok zichligi, $J_{iq} = 1,3$ (A/mm²) qiymatidan foydalanib kabel tolasining hisobiy kesim yuzasini aniqlaymiz:

$$F_{iq} = \frac{I_h}{J_{iq}} = \frac{93,82}{1,3} = 72,16$$

- favqulodda (avariya) rejimda (bitta transformator ish holatida bo'lganida):

$$I_{h.av} = \frac{S_{h\Sigma}}{\sqrt{3} * U_n} = \frac{129,85}{1,73 * 0,4} = 187,6A$$

Yuqoridagi hisoblashlarga asoslanib, KL-1 uchun BBΓ2(3x95+1x50) markali va $F_n=95 (mm^2)$ kesim yuzali kabelni tanlaymiz.

$I_{rux.et}=240(A) > I_{h.av}=187,6 (A)$ talabga mos keladi.

Ip yigiruv fabrikasining ``Janub -35/6 kV`` podstansiyasidan 6 kV li kuchlanishli kabel liniyasi orqali KPY-6 kV elektr energiya bilan ta`minlanadi. Alohida 2 zanjirli kabel liniya bilan ta`minlanadi.

2.9. Kabellar kesimini joiz qizish bo`yicha tanlash.

Kabellarning o`tish tokidan qizishini xisobga olib tanlashda quyidagi 2 munosabatdan foydalaniladi.

$$I_j > I_{ish}/K_t \quad (1)$$

$$I_{jk} > I_{xim} * K_{xim}/K_t \quad (2)$$

Bu yerda I_j —o`tkazgizgichda joiz davomiy toki;

I_{ish} - ishchi (hisobiy) tok.

I_{xim} -himoyalovchi apparatlarning nominal toki

K_t - kabellarning o`tkazish sharoitini hisobga oluvchi to`g`rilash koefisienti;

K_{xim} - himoyaning koefisienti.

Kabellarning har xil kesimlari uchun tokining joiz davomlilik qiymatlari elektr qurilmalari tuzilishi qoydalari (ETK) jadvallarida keltirilgan. Bu jadvallar quydagilar sharoitlarga tuzilgan.

1. Atrof-muhitning hororati-25⁰ C;
2. Tuproqning kabel yotqiziladigan chuqurligidagi (0.7m) haroratda -15°C
3. Transheyaga bitta kabel yotqiziladi.

Ushbu sharoitda bajarilsa K_t - tog`rilash koefisienti kiritiladi.

To`grilash koefisientlarning miqdori ham ETK jadvallarida keltirilgan.

Normal sharoitlar uchun (1)va(2) munosabatlar quyidagi ko`rinishda yoziladi

$$I_T \geq I_{ish} \quad (3)$$

Oqova suvlarini tozalash elektr istemolchilarini hisobiy toki:

$$I_{ish} = \frac{S_x}{\sqrt{3} \cdot U_H} = \frac{1799}{1,73 \cdot 6} = 173,3A$$

Xar qanday avariya xolatida elektr energiya uzatilishini hisobga olgan holda kabel tanlanadi. АПБсЭВНГ-3(1x185) markali kabel tanlash maqsadga muvofiq bo`ladi.

Elektr tarmoqlari himoyalaniishiga qarab ikkiga bo`linadi:

1. O`ta yuklanish va q t tokidan himoyalalanuvchi tarmoqlar
2. Faqat qt tokidan himoyalalanuvchi tarmoqlar.

Birinchi nholda himoyaning koefisenti $K_{xim}=1.25$ ya`ni

$$I_j \geq 1.25 \cdot I_{xim} \quad (4)$$

Qog`oz izolyasiyalı kabellar ishlatilganda  $K_{xim}=1$ . Ya`ni

$$I_j \geq I_{xim} \quad (5)$$

Liniya faqat qisqa tutashuv tokidan ximoyalansa, $K_{xim}=0,33$

Loyixalanayotgan tarmoqda QT ximoyalash uchun 400A ajratgich tanlanadi.

Loyihalanayotgan elektr tarmog`ı faqat QT dan himoya o`rnatilgan shu sababli

$$I_j \geq I_{tk} \cdot K_{xim} = 400 \cdot 0.33 = 207.9 A$$

Tanlangan kabel markasi QT uchun xam qoniqarli hyisoblanadi.

Qolgan kabel liniyalari bo'yicha ham xuddi shu tarzda hisoblashlarni davom ettirgan holda, kabellar tanlaymiz va natijalarini N7-jadvalga kiritamiz.

8-Jadval

№ KL	Kabellarning yoʻnalishi	S _{h.kl}	I _{h.n}	I _{h.av}	F _{h.kl}	F _n	I _{rux.et.a} v	I _{rux.et.} n
		kVA	A	A	mm ²	mm ₂	A	A
0,4 kV li kabel elektr uzatuv liniyalari uchun								
1	TP dan III C-1 gacha	129,8 5	93,82	187,6	72,16	95	480	240
2	TP dan III C-2 gacha	108,2 1	78,18	156,3	60,14	95	480	240
3	TP dan III C-3 gacha	116,5 3	84,19	168,39	64,76	95	480	240

4	TP dan III C-4 gacha	184	132,9 5	265,89	102,2 6	95	480	240
5	TP dan III C-5 gacha	77,7	56,14	112,28	43,18	95	480	240
6	TP dan III C-6 gacha	70,5	50,9	101,9	39,19	95	480	240
7	TP dan III C-7 gacha	126,1	91,11	182,22	70	150	610	305
8	TP dan III C-8 gacha	132,8 3	95,9	191,9	73,82	95	480	240
9	TP dan III C-9 gacha	132,8 3	95,9	191,9	73,82	95	480	240
10	TP dan III C-10 gacha	99,83	72,13	144,2	55,48	150	610	305
11	TP dan III C-11 gacha	150,6 7	108,8 7	217,7	83,74	95	480	240
12	TP dan III C-12 gacha	89,07	64,35	128,7	49,5	95	480	240
6 kV li Kabel elektr uzatuv liniyasi uchun								
KL	BPP dan KPY gacha	1799	173,3	747,3	287,4	150	780	390

2.10. Ip yigiruv fabrikasining kabel liniyalarini termik bardoshligi va kuchlanish isrofi bo'yicha tekshirish

Elektr energetika tizimi iste'molchilarini sifatli elektr energiya bilan ta'minlash zarur. Elektr energiyasining eng asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri, bu iste'molchilarga berilayotgan kuchlanishning miqdori hisoblanadi. Kuchlanishni kerakli pog'onada ushlab turish, bu elektrotexnikaning murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Kuchlanishni stabillashtirish uchun o'tkazgichlarning kesim yuzalarini hisobiy kuchlanish bo'yicha qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Uch fazali tarmoqlarda kuchlanish nobudgarchiligining taxminiy qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$\Delta U = \sqrt{3} \cdot I_h \cdot l_h \cdot (r_l \cdot \cos \varphi + x_l \cdot \sin \varphi),$$

bu yerda, I_h - hisobiy tok, (A); l_h - kabel liniyasining uzunligi, (km);

r_l , x_l - kabel liniyasining aktiv va induktiv qarshiliklari, (Om/km);

$\cos \varphi$ - iste'molchining quvvat koeffitsiyenti.

1.TP dan III C-1 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 93,82 * 0,04 * 100(0,326 * 0,85 + 0,0602 * 0,52)}{400} = 0,5V$$

2. TP dan III C-2 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 78,18 * 0,055 * 100(0,326 * 0,85 + 0,0602 * 0,52)}{400} = 0,57V$$

3.TP dan III C-3 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 84,19 * 0,06 * 100(0,326 * 0,85 + 0,0602 * 0,52)}{400} = 0,67V$$

4. TP dan III C-4 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 132,95 * 0,06 * 100(0,206 * 0,8 + 0,0602 * 0,6)}{400} = 0,67V$$

5.TP dan III C-5 kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 56,142 * 0,037 * 100(0,326 * 0,8 + 0,0602 * 0,6)}{400} = 0,69V$$

6.TP dan III C-6 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 50,95 * 0,024 * 100(0,326 * 0,8 + 0,0602 * 0,6)}{400} = 0,15V$$

7.TP dan III C-7 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 91,11 * 0,033 * 100(0,258 * 0,8 + 0,0596 * 0,6)}{400} = 0,83V$$

8.TP dan III C-8 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 95,972 * 0,048 * 100(0,326 * 0,8 + 0,0602 * 0,6)}{400} = 0,59V$$

9.TP dan III C-9 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 95,972 * 0,086 * 100(0,326 * 0,8 + 0,0602 * 0,6)}{400} = 1,05V$$

10.TP dan III C-10 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * l_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 72,13 * 0,015 * 100(0,206 * 0,8 + 0,0596 * 0,6)}{400} = 0,93V$$

11.TP dan III C-11 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * I_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 108,87 * 0,084 * 100(0,326 * 0,8 + 0,0602 * 0,6)}{400} = 1,17V$$

12.TP dan III C-12 gacha kabel liniyasini kuchlanish isrofi.

$$\Delta U = \frac{\sqrt{3} * I_h * I_{kl} * 100(r_l * \cos \varphi + x_l * \sin \varphi)}{400} = \frac{1,73 * 64,35 * 0,158 * 100(0,326 * 0,8 + 0,0602 * 0,6)}{400} = 1,3V$$

Kuchlanish isrofini aniqlaymiz quyidagi jadvalga yozamiz.

9-Jadval

№ KL	0,4 kV li kabel liniyalari uchun	$I_{h.nor}$	I_{kl}	r_{sol}	x_{sol}	ΔU
		A	km	Om/km	Om/km	%
1	TP dan III C-1 gacha	93,82	0,04	0,326	0,0602	0,5012
2	TP dan III C-2 gacha	78,183	0,055	0,326	0,0602	0,5743
3	TP dan III C-3 gacha	84,198	0,06	0,326	0,0602	0,6747
4	TP dan III C-4 gacha	132,95	0,06	0,206	0,0596	0,6919
5	TP dan III C-5 gacha	56,142	0,037	0,326	0,0602	0,2668
6	TP dan III C-6 gacha	50,957	0,024	0,326	0,0602	0,1571
7	TP dan III C-7 gacha	91,113	0,033	0,258	0,0596	0,8367
8	TP dan III C-8 gacha	95,972	0,048	0,326	0,0602	0,5916
9	TP dan III C-9gacha	95,972	0,086	0,326	0,0602	1,0599
10	TP dan III C-10 gacha	72,137	0,15	0,206	0,0596	0,9386
11	TP dan III C-1 1gacha	108,87	0,084	0,326	0,0602	1,1743
12	TP dan III C-12gacha	64,357	0,158	0,326	0,0602	1,3058

Binolarga tanlangan kabel markalari.

10-jadval

№	Boshi	Oxiri	Kabel rusumi va kesimi	Uzunligi (km)
1	TP 6/0,4	ЩС-1	BBГ-2(3x95+1x50)	0,04
2	TP 6/0,4	ЩС-2	BBГ-2(3x95+1x50)	0,055
3	TP 6/0,4	ЩС-3	BBГ-2(3x95+1x50)	0,06
4	TP 6/0,4	ЩС-4	BBГ-2(3x120+1x70)	0,06
5	TP 6/0,4	ЩС-5	BBГ-(3x95+1x50)	0,037
6	TP 6/0,4	ЩС-6	BBГ-(3x95+1x50)	0,024
7	TP 6/0,4	ЩС-7	BBГ-(3x150+1x70)	0,033
8	TP 6/0,4	ЩС-8	BBГ-2(3x95+1x50)	0,048
9	TP 6/0,4	ЩС-9	BBГ-2(3x95+1x50)	0,086
10	TP 6/0,4	ЩС-10	BBГ-(3x150+1x70)	0,15
11	TP 6/0,4	ЩС-11	BBГ-2(3x95+1x50)	0,084
12	TP 6/0,4	ЩС-12	BBГ-(3x95+1x50)	0,158

2.11. Elektr ta'minoti tizimida qisqa tutashuv.

Qisqa tutashuv (QT) deb, fazalararo tutashuv yoki neytral nuqtasi yerga ulangan tizimlarda, bir va undan ko'p fazalarni yer bilan tutashuvi tushuniladi.

Uch fazali tizimda quyidagi QT lar bo'lishi mumkin:

- *uch fazali QT*, bu uchta fazaning bitta joyda va bir vaqtning o'zida o'zaro tutashuvidir;

- *ikki fazali QT*, bu uch fazali tizimda ikkita fazaning bevosita tutashuvidir;

- *bir fazali QT*, bu neytrali yerga ulagan uch fazali tizimda bitta fazasining yerga tutashuvidir.

QT sodir bo'lishining asosiy sabablari:

- izolyatsiyaning mexanik shikastlanishi;
- yer ishlarini bajarish jarayonida kabelni ishdan chiqishi;
- chinni izolyatsiyalarni sinishi;
- havo elektr uzatuv liniyalari ustunlarini yiqilishi;
- eskirish, ya'ni izolyatsiyalash xususiyatlarini yomonlashuvi;
- izolyatsiyani namlanishi;
- atmosferada sodir bo'ladigan o'ta kuchlanishdan fazalarni birikishi;
- har xil o'tkazgich materiallari bilan fazalarni qoplanishi;
- operativ kommutatsiyalar jarayonida xatoliklarga yo'l qo'yilishi va h.k.

Hisoblash sxemasi asosida almashtirish sxemasi tuziladi. Unda tizimdagi barcha elementlarning qarshiliklari ko'rsatiladi va QT toki aniqlanishi kerak bo'lgan nuqta belgilanadi.

QT tokini nisbiy birlikda hisoblashda kuchlanish va quvvatning bazaviy miqdorlari qabul qilinadi. Bazaviy kuchlanish sifatida QT toki hisoblanayotgan nuqtaning o'rtacha kuchlanishini olish mumkin:


1. Hisoblash uchun bazis birliklarini qabul qilamiz:

$$S_b = 63 \text{ (MVA)}, \quad U_{b1} = 115 \text{ (kV)}, \quad U_{b2} = 6,3 \text{ (kV)}.$$

2. Bazis birliklari asosida, bazis toklarini hisoblaymiz:

$$I_{b1} = \frac{S_b}{\sqrt{3} \cdot U_{b1}} = \frac{63}{1,73 \cdot 115} = 0,31, \quad I_{b2} = \frac{S_b}{\sqrt{3} \cdot U_{b2}} = \frac{63}{1,73 \cdot 6,3} = 5,7.$$

1. Almashtiruv sxemasini tuzib, uning qarshiliklarini raqamlab chiqamiz.



4. Almashtiruv sxemasi bo'yicha elementlarning hisobiy qarshiliklarini aniqlaymiz, ya'ni:

- havo elektr uzatuv liniyalari uchun qarshiliklar quyidagicha:

$$r_{1*} = r_0 \cdot l \cdot \frac{S_b}{U_1^2} = 0,46 \cdot 3,2 \cdot \frac{63}{115^2} = 0,006,$$

$$x_{1*} = x_0 \cdot l \cdot \frac{S_b}{U_1^2} = 0,44 \cdot 3,2 \cdot \frac{0,4}{115^2} = 0,0066.$$

- BPP transformatorlarining qarshiliklari:

$$r_{2*} = \frac{\Delta P_{qt}}{S_n} \cdot \frac{S_b}{S_n} = \frac{137 \cdot 10^{-3}}{63} \cdot \frac{63}{63} = 0,0021,$$

$$x_{2*} = \sqrt{\left(\frac{u_{qt}}{100}\right)^2 - r_{2*}^2} \cdot \frac{S_b}{S_n} = \sqrt{\left(\frac{12}{100}\right)^2 - 0,003^2} \cdot \frac{63}{63} = 0,0143.$$

- kabel elektr uzatuv liniyalari uchun qarshiliklar:

$$r_{3*} = r_0 \cdot l \cdot \frac{S_b}{U_2^2} = 0,2 \cdot 0,6 \cdot \frac{63}{6,3^2} = 0,1896,$$

$$x_{3*} = x_0 \cdot l \cdot \frac{S_b}{U_2^2} = 0,059 \cdot 0,6 \cdot \frac{63}{6,3^2} = 0,0559.$$

5. Ko'riliyotgan nuqtalar bo'yicha qisqa tutashuv toklarini aniqlaymiz.

- QT-1 nuqtasi uchun:

$$Z_{ekv.1} = Z_{1*} = 0,0066 + j0,006 = |0,0126|.$$

$r > \frac{x}{3}$ sharti bajarilmagani uchun, aktiv qarshilikni ham hisobga olamiz.

Ko'riliyotgan nuqtada qisqa tutashuv toki:

$$I_{qt.1} = \frac{I_{b1}}{Z_{ekv.1}} = \frac{0,031}{0,0126} = 2,46 \quad (\text{kA}).$$

- QT-2 nuqtasi uchun:

$$Z_{ekv.2} = Z_{ekv.1} + Z_{2*} = 0,0066 + j0,006 + 0,0021 + j0,0143 = 0,0087 + j0,02.$$

$r > \frac{x}{3}$ sharti bajarilgani uchun, aktiv qarshilikni hisobga olmaymiz.

Ko'riliyotgan nuqtada qisqa tutashuv toki:

$$I_{qt.2} = \frac{I_{b2}}{Z_{ekv.2}} = \frac{5,7}{0,02} = 285 \quad (\text{kA}).$$

- QT-3 nuqtasi uchun:

$$Z_{ekv.3} = Z_{ekv.2} + Z_{3*} = 0,0087 + j0,02 + 0,0021 + j0,0143 = 0,0108 + j0,0343.$$

$r > \frac{x}{3}$ sharti bajarilgani uchun, aktiv qarshilikni hisobga olmaymiz.

Ko'riliyotgan nuqtada qisqa tutashuv toki:

$$I_{qt.3} = \frac{I_{b2}}{Z_{ekv.3}} = \frac{5,7}{0,0451} = 126 \quad (\text{kA}).$$

6. Ko'riliyotgan nuqtalar uchun zarbaviy tok:

$$i_{zar.1} = k_{zar.1} \cdot I_{1.\max} = k_{zar.1} \cdot \sqrt{2} \cdot I_{qt1} = 1,01 \cdot 1,41 \cdot 2,46 = 3,5 \quad (\text{kA}),$$

$$i_{zar.2} = k_{zar.2} \cdot I_{2.\max} = k_{zar.2} \cdot \sqrt{2} \cdot I_{qt2} = 1,07 \cdot 1,41 \cdot 285 = 429,9 \quad (\text{kA}),$$

$$i_{zar.3} = k_{zar.3} \cdot I_{3,max} = k_{zar.3} \cdot \sqrt{2} \cdot I_{qt3} = 1,06 \cdot 1,41 \cdot 126 = 188,3 \quad (\text{kA}).$$

2.12. Ip yigiruv fabrikasining elektr yoritish tizimini hisobi;

Yoritish loyihalash amaliyotida yoritishni hisoblashning nuqtaviy yoryg`lik oqimi va solishtirma quvvat kabi 3 usul keng qo`llaniladi: biz ushbu usullardan nuqtaviy va solishtirma quvvat usullardan foydalanamiz.

Yoritishning hisoblashning nuqtaviy usuli . bu usul bilan yoritish hisoblashda yoritilayotgan yuzadan yorug`lik oqimining yuzaga urilib qaytish hisobga olinmaydi va shuning uchun xam bu usul bilan odatda sanoat korxonalarning ochiq joylardagi va xafli sathlarning yoritilishini hisoblashda keng qo`llaniladi. Bu usul bilan yoritish hisoblanganida yoritgichning yorug`ligi tarqalishi tavsiflarini bilish zarurdirb. Yoritilayotgan obektdan yoritgichning qanday masofada joylashganligi. O`z o`qidan qanday burchak ostida yorug`lik chiqarilayotganligini yani yorug`lik kuchini bilish talab etiladi. Yorug`likni hisoblash quydagi tartibda amalga oshiriladi: Avval yoritgich tanlanadi yoritgich bilan yorilitiluvchi ishchi yuza orasidagi masofa aniqlanadi yoritilayotgan yuzaning ixtiyoriy nuqtasini yoritilayotganlik hisoblanadi va yoritilganlik qiymati shu ishchi yuza uchun qabul qilingan meyoriy qiymati bilan solishtiriladi . Bu qiymatlar o`zaro solishtirilganligida mos kelmasa. U holda ishchi yuza bilan yoritgich orasidagi masofa o`zgartirilib yoki boshqa turdagi yoritgich tanlanib yoritishni hisoblash qaytadan yoritilganlikni to meyoriy qiymatiga mos kelguncha davom ettiriladi.

- 1) Ishlab chiqarish binosi qurilmasi atrofini yoritish uchun svetilniklar sonini tanlaymiz .

Tanlanadigan svetilnik 32 W $E_H=10\text{lk}$; $K_3=1.2$; $\eta_{foy}=0,18$; $n=0.34$ $S=200\text{m}^2$

$$N = \frac{E \cdot K \cdot Z \cdot S}{F \cdot \eta} = \frac{1920 \cdot 0,34 \cdot 0,184 \cdot 0,9}{10 \cdot 200 \cdot 1,2} = 22,2$$

22 dona tanlaymiz.

- 2) TP Nasos xo`jaligi uchun svetiliklar sonini tanlaymiz:

$S = 8 \cdot 8 = 64 \text{ m}^2$ balandligi $H = 4 \text{ m}$; ko'effitsient yorug'likni qaytarish potolok uchun $p_1 = 0,5$, devor uchun $p_2 = 0,3$ xisoblanadigan tekislik uchun $p_3 = 0,2$
 $V_{\text{nor}} = 75 \text{ lk}$. $K_3 = 1,2$

Nasos hojaligi ko'rsatkichi:

$$F = \frac{a \cdot b}{H_p \cdot (a + b)} = \frac{8 + 8}{4 \cdot (8 + 8)} = 1$$

Yuqoridagi ko'rsatkich uchun:

$$\eta_{\text{foy}} = 0,31$$

Ko'effitsient $Z = 1,2$

Nasos ho'jaligi uchun lampalar sonini aniqlaymiz:

$$N = \frac{E \cdot K \cdot Z \cdot S}{F \cdot \eta_{\text{foy}}} = \frac{75 \cdot 64 \cdot 1,2 \cdot 1,2}{1920 \cdot 0,31} = 11,61$$

12 dona tanlaymiz

Ip yigiruv fabrikasining xududini va qurilmalarini yoritish uchun tanlangan yoritish uskunolari yoritilganlik me'yorlariga mos yoritib bera oladi.

Qurilmalarga xizmat ko'rsatuvchi ishchi xodimlarning mehnat sharoiti yaxshilanadi. Bu texnika xafsizligi talablariga to'la mos keladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi.

2.13. Ip yigiruv fabrikasining 0,4 kuchlanishli elektr iste'molchilari uchun kabellari va kommutatsion apparatlari tanlash.

380/220 voltli radial kabel liniyasi orqali elektr motorlari energiya bilan taminlaydi. Uch fazali polivnexplorid izolyatsiyali alyuminiy tolali va mis tolali kabel estakedalar bo'ylab yotqizilgan atrof-muhit harorati $+25^{\circ} \text{C}$ motorlari yengil ishga tushiriladi kabelning kesimini quydagi sharoitlarda

- Liniya o'ta yuklanishdan saqlagich bilan himoyalanganda. Xona yong'indan xafli emas
- Liniya o'ta yuklanishdan saqlagich bilan himoyalangani. Yong'indan xafli
- Liniya faqat q t tokidan himoyalangani/

d) Liniyada avtomat bilan himoyalangan. Xonada meyoriy sharoit .

Ip yigiruv fabrikasida foydalaniladigan 45 kW quvvatli elektr motorlari uchun kabel kesimi yuzalari va kommutatsion apparatlari tanlaymiz

a) Xarorat meyoriy bo'lganligi uchun $K_1=1$. Liniyaning hisobiy ishchi toki

$I_{ish}=88$ A. motorlar yengil ishga tushiriladi . qisqa muddatli ishga tushirish toki $I_m = 88 \cdot 5 = 440$ A u kabelning joiz toki $I_j < 88$ A bo'lishi kerag .

Ikkinchi shart bo'yicha tekshirish uchun saqlagichni tanlashimiz kerag.

$$I_{xim} \geq \frac{440}{2,5} = 176 \text{ A}$$

PII-2-100 saqlagichni eruvchi kiritmasiga ning nominal toki 100A meyoriy shartda $K_{xim}=1,5$ xolda

$$I_j \geq I_{xim} = 176 \text{ A}$$

Ikkinchi shart bo'yicha joiz tokning miqdori katta bo'lganligi uchun ETQ jadvalida $I_j=175$ A. kesimi 95 mm^2 bo'lgan kabelni qabul qilamiz .

b) Obekt yong'inidan xafli bo'lganligi uchun $K_{xim}=1.25$. u holda $I_j \geq 1.25 \cdot I_{xim} = 1.25 \cdot 176 = 220$ A. ETK dan $I_j=220$ A. kesimi 95 mm^2 bo'lgan kabelni qabul qilamiz

v) Liniya faqat qisqa tutashuv tokida himoyalansa $K_{xim}=0.33$ U holda $i_j \geq 0.33 I_{xim} = 0.33 \cdot 176 = 58$ A va jadvalda kesimi 35 mm^2 va $I_j=85$ A bo'lgan kabelni olamiz

g) nominal toki 125A bo'lgan DBSB 103 F tipidagi avtomatni qabul qilamiz .

uzgichning nominal toki $100 \text{ A} \cdot 6 \cdot 10$ shartga binoan $I_{nom} \geq I_{ish}$

Qisqa muddatli ishga tushish vaqtida avtomatning ishlamasligini tekshirib ko'ramiz

$$I_{hrr} = 1.25 I_m = 1.25 \cdot 440 = 550 \text{ A} \text{ yani } 550 < 750 \text{ A}$$

bu yerda 750A- avtomatikani bir onda ishlash toki .

liniyaning kesimini tanlash uchun Hisobiy tok $I_{ish} = 88$ A obekt b) band mos bo'lgan uchun kesimi 95 mm^2 $I_j=220$ A bo'lgan kabelni tanlaymiz

($I_j > I_{ish}$) kabel normal sharoitda ishlatilishi va DBS103F seriyadagi avtomatlardan o`rnatma toki boshqarilmasligini hisobga olsak $K_{xim}=1$. U holda $I_j \geq I_{xim}$ shart bajariladi yani $220 > 175A$.

III-Bob. Mehnat muhofazasi.

3.1. Komplekt transformator podstansiyasi 6/0,4 kV li yerga ulanish tizimining hisobi.

